

## MAKTAB DARSLIKLARDA TEKNOLOGIK TA'LIM FANINING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*

*Sport va chaqiriqqacha harbiy ta'lif fakulteti  
tekhnologik ta'lif yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Mahmudova Mashhura**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada umumiyo'rta ta'lif maktablarida tekhnologik ta'lif jarayonlarini tashkil etish ahamiyati va dolzarbliji mexanizmlarini takomillashtirishda uziliksiz ta'lif tizimida ta'lif muassasalarida innovatsion faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglarni tayyorlashda, dars jarayonini tashkil etishda, dars shakllari, metodlari va vositalaridan foydalanishda innovatsion ta'lif texnologiyalarini tadbiq etish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Texhnologik ta'lif, kompetentsiya, mexanizm, metodik, innovatsion, pedagogik, texnologiya dolzarbliji, estetik va gigienik, globallashuv, ta'lifni integratsiyalashtirish.*

**Абстрактный:** В данной статье в совершенствовании механизмов организации и управления процессами технологического образования в общеобразовательных школах, в системе непрерывного образования, в подготовке педагогов, осуществляющих инновационную деятельность в общеобразовательных учреждениях, в организации урока процессе, при использовании форм урока, методов и средств предоставляется информация о внедрении инновационных образовательных технологий.

**Ключевые слова:** Технологическое образование, компетентность, механизм, методическое инновационное, педагогическое, Актуальность технологии, эстетико-гигиеническое, глобализация, интеграция образования.

**Abstract:** *In this article, in the improvement of the mechanisms of organization and management of technological education processes in general secondary schools in the continuous education system, in the training of pedagogues who perform innovative activities in educational institutions, in the organization of the lesson process, in the use of lesson forms, methods and tools information on the implementation of innovative educational technologies is provided.*

**Keywords:** *Technological education, competence, mechanism, methodical, innovative, pedagogical, technology relevance, aesthetic and hygienic, globalization, integration of education.*

XXI asr fan texnika shiddat bilan rivojlanayotgan davrda har bir sohaga xorijiy tajribalar, yangi loyihibar kirib kelayotgani mamlakatimiz rivoji va ta'lif sohasida fan o'qituvchisi deb his qilmasliklari va ushbi fanni chuqur egallagan holda o'quvchilarda ham

fanga qiziqish uyg'ota olishlari kerak. Texnologiya fani o'qituvchilari dars o'tish jarayonida ushbu fanning jamiyatdagi o'rni va mazmunmohiyati, fanning o'qitimishdagi maqsadlarini o'zlari teran his etishlari va shu bilan birga o'quvchilarga mehnatsevarlikni, ijodkorlikni va qaysidir ma'noda tadbirkorlikni o'rgatishlari lozim. «Ma'lumki o'qituvchilik kasbi o'ta ma'suliyatli kasb bo'lib, turli integratsion bilim va ko'nikmalarni talab etadi.[1]

Texnologiya fani darslari maktabda eng uzoq vaqt o'tiladigan o'quv fanlaridan biri hisoblanadi. Texnologiya o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar mehnat faoliyati jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqida bilimlarini hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko'nikma va malakalarini egallashlariga, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv fanidir. Bu fan umumiyligi o'rta ta'lim mакtablarida uzoq muddat, ya'ni birinchi sinfdan to oxirgi sinfgacha bo'lgan davr ichida o'qitimishi bilan o'quvchilar faoliyatida va mакtab hayotida o'ziga xos muhim ahamiyatga egadir.[2]

Texnologiya fani o'qituvchisi kelajakda o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularda ma'lum kasb-hunarga oid ko'nikmalari shakllantiradi. Bunda berilgan buyumlarni tayyorlashda o'qituvchi yuqori malaka va kasbiy mahoratga ega bo'lmog'i kerak. Ushbu natijaga erishish uchun bilim va ko'nikmalardan tashqari o'qituvchining o'z sinalgan uslubi, ta'lim va tarbiya orqali o'quvchilarga ta'sir o'tkaza olish qobiliyati bo'lishi lozim. Dars jarayonida o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularda mehnat qilish ko'nikmalarini o'stirish va mehnat orqali tarbiyalash ko'nikmasiga ega bo'lismi talabalarga olyi ta'lim muassasalarida shakllantirish lozimdir. O'quvchilarni mehnat va kasb olamiga olib kirish borasida «Texnologiya» fani muhim o'rinni tutadi. Uning metodikasini takomillashtirish.[3] Moddiy jihozini mustahkamlash, mакtabni o'z atrofidagi sanoat ishlab chiqarish sohasi bilan aloqasini mustahkamlash, ijtimoiy foydali, unumli mehnatni tashkil etish, uning tarbiyaviy iqtisodiy samaradorligini oshirish va ta'lim bilan qo'shib olib borish, o'quvchilarni mehnatga tayyorlashni yaxshilash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.[4] Texnologiya fani darsi mакtabdagi boshqa fanlar uchun umumiyligi didaktik prinsiplarni qo'llasada, uning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O'quvchilar bilish faoliyati bilan emas, balki yaratish faoliyati bilan shug'ullanadilar.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar bosqichma-bosqich amalgalashirib borilayotgan hozirgi davrda kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqqan holda, ta'lim samaradorligini oshirish borasida mavjud. Bo'lgan xulosalar va tavsiyalarni amalda qo'llashga ehtiyoj tug'ilmoqda.[5] Mazkur muammolarni ijobiy yechimini topish uchun texnologiya fani o'qituvchisining texnologik jarayonlarni tashkil etishni bilishi va boshqaruv mehanizmini takomillashtirish omillarini izlab topish yo'nalishida ilmiy tadqiqot ishlari olib borish shu kunning asosiy dolzarb muammosidir. Ushbu muammoning dolzarbliji ilmiy nuqtai nazardan yetarlicha ishlanmaganligi, texnologiya fani, xususan, texnologik jarayonlarni tashkil etish masalalari va boshqaruv

mehanizmini takomillashtirish muammolari yuzasidan yetarlicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmaganligi mavzuning «Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish» deb nomlashga asos bo'ldi.[6]

Texnologiya fani o'qituvchisi eng avvalo quyidagilarga amal qilsagina darsga qo'yilgan maqsadga erishadi -texnologiya fani darslarida texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va O'qituvchining boshqarish faoliyati mehanizmini takomillashtirishning ilmiy- metodik va psixo-pedagogik asoslari ishlab chiqish;

-texnologik ta'lim jarayonni tashkil etish va boshqaruva mehanizmini takomillashtirishning o'ziga hos yo'llari; texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish yo'llari;

-texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqaruva mehanizmini takomillashtirishda umumta'lim fanlari modullarini integratsiyasi. -texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqaruva mehanizmini takomillashtirishning jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish tizimini ishlab chiqish va dars jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish zarur.[7]

Texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mehanizmini takomillashtirish yuzasidan tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, taklif etilgan modellarning tushintirish mehanizmi, ilmiy-metodik va psixologik va pedagogik asoslarning mavjudligi, ta'lim jarayonlarini zamonaviy yondashuv asosida tashkil etish, o'quv reja va dasturlarni takomillashtirish mehanizmlarini ishlab chiqish, Ta'lim sifati va samaradorligi rivojlantirishda foydalanishi bilan izohlanadi. Texnologiya fanining dolzarbli shundaki texnologik bilimlarni qo'llash, kreativ va texnik fikrlesh orqali tayyor buyumlarning sifat darajasini tahlil etish va o'quvchilarga kasbiy bilimlarni singdirishdan iborat.[8] O'quvchilarni yoshligidan mehnatga o'rgatish kelajak hayotlaida juda katta samara beradi. Bunda mehnat ko'nikmalari bilan birga o'quvchilarda kreativlik, texnik bilimlar, kollektiv ijodkorlik kabi qobiliyatlarni ham shakllantirish zarur. Mashhur idealist faylasuf E.L. Radlov tomonidan yigirmanchi asr boshidagi eng obro'li falsafiy lug'atlardan birida ijodkorlik biror narsaning yaratilishi bilan bog'liqligi, yaratilish qobiliyati xudoga eng xos bo'lganligi va odam faqat nisbatan ijodiy harakatlarni bajarishi mumkin. Bunday bayonotlar bilan bir qatorda, ijodiy jarayon tarkibida ongsiz jarayonlarning mavjudligiga e'tibor qaratildi.[9]

Keyinchalik, ijodkorlikning har xil turlarini ilmiy o'rganish o'zgargani sari, umuman unga bo'lgan munosabat ham, ijodga berilgan ta'riflar ham o'zgardi. So'nggi paytlarda, asosan, yangi mahsulotning yaratilishi ilgari bo'limgan ijodkorlik bilan bog'liqligiga e'tibor qaratildi, ijodkorlik inson faoliyatining turli sohalarida, yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlar vujudga kelganda namoyon bo'ladi. Ijodkorlik bu ma'lum bir mavzu uchun ilgari noma'lum narsani yaratishga, kashf etishga hissa qo'shadigan faoliyat. Yana bir nuqta ijodiy

faoliyat ko'lami bilan bog'liq. Ijtimoiy amaliyotda, qoida tariqasida, ijodkorlik kashfiyot, ixtiro, ratsionalizatsiya kabi yangilik toifalari bilan o'Ichanadi. So'nggi paytlarda tashkiliy va texnologik jarayonlarga yangilik kiritish bilan bog'liq innovatsion (innovatsion) faoliyat haqida ko'p narsa aytildi.[10] Ammo bunday faoliyatni ratsionalizatsiya deb atash mumkin, ratsionalizatsiya – mavjud texnologiyalardan foydalanishni yaxshilash uchun (biz faqat texnik muammolarni hal qilish bilan bog'liq jihatni olamiz).

### XULOSA

Texnologiya fani bizga talim tizimining yangi sohalariga qadam qo'yishga bo'lgan imkoniyatlar eshigini ochadi. Bunga yana yaqqol misol tariqasida mehnat talimi fani texnologiya faniga o'zgartirilganligidir. Buning asosiy sababi mehnat so'zi keng ma'no va tushunchaga ega bo'lib hozirgi texnika va texnologiyalar rivojlangan zamonamizga to'g'ri kelmaydi. Texnologiya ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish lozim. Lekin bu sohada yuqori darajaga erishish uchun eng avvalo moddiy-texnik baza zamon talablariga javob berishi lozim. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

-umumiyl o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan amaldagi texnologiya fani mazmuni, mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati bo'lgan texnologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun yetarli emas; -texnologiya fanini o'qitishda metapredmet kompetensiyalar va fanlararo bog'liqlikning kamligi;

-texnologiya fani me'yoriy hujjatlarida baholash mezonlarining faqat bitiruvchi kompetensiyasi uchun ishlanganligi va darslik, ishchi daftari va o'qituvchi kitoblari, Multimedia ilovalari, didaktik materiallarning yetishmasligi;

-texnologiya fani mazmuniga mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika, arduino kabi O'zbekiston iqtisodiyoti rivoji uchun zarur bo'ladigan elementlarning kiritilmaganligi bo'lajak maktab bitiruvchisi va mutaxassislarning kasbiy sifatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

-o'quvchilarda ta'lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish uchun o'quvchilarda zamonaviy texnika, mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika sohasidagi taktil kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan jihoz va uskunalarining yetishmasligi;

-texnologiya fani moddiy-texnika bazasini eskirganligi, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlanmaganligi hamda byudjetdan mablag' bilan ta'minlash bo'yicha yetarli choralar ko'rish yuzasidan takliflar ishlab chiqilmaganligi.

### ADABIYOTLAR:

1. G.J.Rajabova texnologik jarayonlarni loyihalash
2. 0.O.Tohirov, D.S.Mirahmedova, Z.S.Shamsiyeva Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik

3. Sharipov Sh.S., Qo'ysinov Q.A., Toxirov O.O., Abdullayeva Q.M., Nasrullahova F.A., Madaipov A.A. Texnologiya [Matn]: 6-sinf uchun darslik / - Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2021
4. Yusupbekov N.R., Igamberdiyev X.Z., Malikov A. Texnologik jarayonlarni Avtomatlashtirish asoslari. – T.: ToshDTY, 2007.
5. M.M.Axmedov, Bo'tayeva Gulmira Boxodirjonovna //TEXNOLOGIYA FANIDA TEXNOLOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMUY TADQIQOTLAR JURNALI. 19.10.2022 12-SON 745-750 betlar.
- 6 A'zamxonov S.X. Modern concepts of human capita measurement <http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/1527> ТОМ. 11 № 5 (2023) ФИДЖЕШ.
7. A'zamxonov S.X. Inson kapitali bilan bog'liq tushunchalarning nazariy tahlili <https://interonconf.org/index.php/den/article/view/2533> vol. 2 no. 20 (2023): pedagogical sciences and teaching methods 247-254-bet 3. A'zamxonov S.X. Ta'lif jarayonida o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari <https://bestpublication.org/index.php/q/article/view/1106> vol. 2 no. 22 (2022): ijodkor o'qituvchi 381-386-bet.
8. A'zamxonov S.X. Ta'lif jarayonida o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1313/1272> vol. 1 no. 12 (2022): o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 453-459-bet
- 9 Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти Тизимини ривожлантириш концепцияси//»Социология фанлари» ([www.tadqiqot.uz\soci](http://www.tadqiqot.uz\soci)) электрон журнали. №1. Тошкент, 2020. Б. 7-18. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1/>
- 10 Kadirova Y. B. The Advantages of Improving Students' Civic Literacy in Building a Democratic State Governed by the Rule of Law //International Journal of Multicultural And Multireligious Understanding.-2021.-T. 8.-No. 5.-C. 469-473.